

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BAHOLASHDA “WBL” INDEKSIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Raximova Moxigul Isroiljonovna

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

oliy ta’lim muassasasi,

“Yashil iqtisodiyot” kafedrası mudiri, i.f.f.d. (Phd), dotsent

ORCID: 0009-0005-6197-2094

E-mail: rahimovamoxigul1989@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholashda Jahon bankining Women, Business and the Law (WBL) indeksidan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda WBL indeksi ayollarning iqtisodiy faolligiga ta’sir etuvchi huquqiy, institutsional va amaliy muhitni baholashning muhim xalqaro vositasi sifatida ko‘rib chiqilgan. Indeks tarkibidagi asosiy yo‘nalishlar ayollar tadbirkorligining rivojlanish darajasini aniqlash, mavjud to‘siq va cheklovlarni baholash hamda davlat qo‘llab-quvvatlash siyosatining samaradorligini tahlil qilish nuqtai nazaridan yoritilgan. Maqolada WBL indeksi ko‘rsatkichlarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirib, ayollar tadbirkorlik faoliyatini kompleks baholash metodikasini takomillashtirish zarurati asoslangan. Tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirish, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ayollar tadbirkorligi, ayollar tadbirkorlik faoliyati, WBL indeksi, ayollarning iqtisodiy faolligi, tadbirkorlikni baholash, huquqiy muhit, institutsional muhit, gender tengligi, davlat qo‘llab-quvvatlashi, xalqaro indekslar, tadbirkorlik samaradorligi,

Аннотация

В данной статье исследуются возможности использования индекса Всемирного банка Women, Business and the Law (WBL) при оценке предпринимательской деятельности женщин в Узбекистане. В исследовании индекс WBL рассматривается как важный международный инструмент оценки правовой, институциональной и практической среды, влияющей на экономическую активность женщин. Также основные направления, входящие в структуру индекса, раскрыты с точки зрения определения уровня развития женского предпринимательства, оценки существующих барьеров и ограничений, а также анализа эффективности государственной политики поддержки. В статье обоснована необходимость адаптации показателей индекса WBL к условиям Узбекистана и совершенствования методики комплексной оценки предпринимательской деятельности женщин. Результаты исследования позволяют выработать научно-практические выводы по стимулированию женского предпринимательства, укреплению правовых гарантий и совершенствованию механизмов институциональной поддержки.

Ключевые слова: женское предпринимательство, предпринимательская деятельность женщин, индекс WBL, экономическая активность женщин, оценка предпринимательства, правовая среда, институциональная среда, гендерное равенство, государственная поддержка, международные индексы, эффективность предпринимательства

Abstract

This article examines the possibilities of using the World Bank's Women, Business and the Law (WBL) index in assessing women's entrepreneurial activity in Uzbekistan. The study considers the WBL index as an important international tool for evaluating the legal, institutional, and practical environment affecting women's economic activity. The main components of the index are also analyzed from the perspective of identifying the level of women's entrepreneurship development, assessing existing barriers and constraints, and evaluating the effectiveness of state support policies. The article substantiates the need to adapt the WBL index indicators to the conditions of Uzbekistan and to improve the methodology for the comprehensive assessment of women's entrepreneurial activity. The research findings make it possible to develop scientific and practical conclusions aimed at promoting women's entrepreneurship, strengthening legal guarantees, and improving institutional support mechanisms.

Keywords: women's entrepreneurship, women's entrepreneurial activity, WBL index, women's economic activity, entrepreneurship assessment, legal environment, institutional environment, gender equality, state support, international indices, entrepreneurship efficiency.

KIRISH

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, bandlikni oshirish, oilaviy daromad manbalarini kengaytirish va inklyuziv taraqqiyotga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, ayollar tadbirkorlik faoliyatini faqat miqdoriy ko'rsatkichlar asosida emas, balki uning huquqiy, institutsional va amaliy muhiti nuqtai nazaridan ham baholash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda bunday baholashda Jahon bankining Women, Business and the Law (WBL) indeksi muhim analitik vosita sifatida qo'llaniladi[1]. Mazkur indeks ayollarning iqtisodiy faolligiga ta'sir etuvchi qonunlar, siyosatlar va ularning amaliy ijrosini baholaydi. Uning yangilangan yondashuvda ayollarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlari 10 ta yo'nalish bo'yicha tahlil qilinadi, bu esa ayollar tadbirkorligining rivojlanish muhitini kompleks baholash imkonini beradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. WBL indeksida mamlakat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi milliy qonunchilik va institutsional muhitda ijobiy siljishlar mavjudligini ko'rsatadi. Biroq mazkur indeks imkoniyatlaridan ayollar tadbirkorlik faoliyatini milliy va hududiy darajada baholashda samarali foydalanish masalasi hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, WBL indeksi ayollar tadbirkorligini baholashda an'anaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarni to'ldiruvchi kompleks yondashuv sifatida ahamiyatga ega. U

ayollarning biznes yuritish, mol-mulkka egalik qilish, mehnat bozorida ishtirok etish va davlat qo‘llab-quvvatlovidan foydalanish imkoniyatlarini bilvosita aks ettiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholashda WBL indeksidan foydalanish imkoniyatlarini ochib berish, uning asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va milliy baholash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholash xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarda alohida yo‘nalish sifatida rivojlanmoqda. Bu jarayonda faqat ayollar biznesi soni yoki bandlik darajasi emas, balki tadbirkorlikka kirish imkoniyatlari, huquqiy kafolatlar, institutsional qo‘llab-quvvatlash va amaliy ijro samaradorligini kompleks baholashga e‘tibor kuchaygan. Shu nuqtai nazardan, Jahon bankining Women, Business and the Law (WBL) dasturi ayollarning iqtisodiy faolligiga ta‘sir etuvchi huquqiy va amaliy shart-sharoitlarni baholashning muhim xalqaro manbalaridan biri hisoblanadi[2].

Jahon bankining 2024 yilgi hisobotida WBL yondashuvi huquqiy baza, qo‘llab-quvvatlovchi institutlar va amaliy ijro asosida kengaytirilgan. Bu yondashuv ayollar tadbirkorligini baholashda muhim ahamiyatga ega, chunki tadbirkorlik faoliyati nafaqat biznes yuritish huquqi, balki mehnat bozoriga kirish, mol-mulkka egalik qilish, moliyaviy resurslardan foydalanish va ijtimoiy infratuzilma imkoniyatlari bilan ham bog‘liq. Shu jihatdan WBL indeksi ayollar tadbirkorligi muhitini baholash uchun kompleks institutsional mezonlar tizimini taqdim etadi.

Ilmiy manbalarda ham ayollar tadbirkorligiga huquqiy cheklovlar, institutsional to‘siqlar, moliyaviy inklyuziya va davlat qo‘llab-quvvatlovining ta‘siri keng o‘rganilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, gender tengligiga oid qonunchilik va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari rivojlangan mamlakatlarda ayollarning iqtisodiy faolligi yuqoriroq bo‘ladi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston bo‘yicha ayrim tadqiqotlarda WBL ma‘lumotlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashda cheklovlar mavjudligi ta‘kidlangan. Xususan, ushbu indeks ko‘rsatkichlari asosan Toshkent sharoitiga yaqin baholarni aks ettirishi sababli, uni hududiy xususiyatlar, infratuzilma va mahalliy institutsional omillar bilan boyitish zarur.

Adabiyotlar tahlili WBL indeksi ayollar tadbirkorligini baholash uchun muhim xalqaro metodik asos ekanini, ammo uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda qo‘llash ilmiy jihatdan samaraliroq ekanini ko‘rsatadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholashda Women, Business and the Law (WBL) indeksidan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini Jahon bankining rasmiy WBL metodologiyasi, O‘zbekiston bo‘yicha mamlakat profili va mavzuga oid tahliliy materiallar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslash va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu

usullar orqali ayollar tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi huquqiy va institutsional omillar ajratib olindi hamda WBL indeksi ko'rsatkichlari an'anaviy iqtisodiy baholash mezonlari bilan solishtirildi.

Axborot bazasi sifatida WBL rasmiy ma'lumotlari, O'zbekiston bo'yicha 2024-yilgi mamlakat profili, WBL 2.0 pilot ma'lumotlari va tahliliy manbalardan foydalanildi. Metodologik jihatdan tadqiqot ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda WBL indeksining tarkibiy tuzilishi va baholash tamoyillari o'rganildi, ikkinchi bosqichda esa uning ko'rsatkichlarini ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholash nuqtai nazaridan tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilindi[3].

Tadqiqotda adaptatsiyalash usuli ham qo'llanilib, WBL indeksi ko'rsatkichlari O'zbekiston sharoitiga moslashtirildi. Bunda WBL indeksi tashqi baholash mezoni, milliy statistik va institutsional ko'rsatkichlar esa ichki baholash mezoni sifatida talqin qilindi. Shu tariqa, WBL indeksi ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholashning tayyor modeli sifatida emas, balki metodik baza va institutsional diagnostika vositasi sifatida qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholashda WBL indeksi muhim xalqaro mezon sifatida ahamiyat kasb etadi. Mazkur indeks ayollarning iqtisodiy huquqlari, mehnat bozoridagi ishtiroki, biznes yuritish imkoniyatlari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhitini kompleks baholash imkonini beradi. Tahlillarga ko'ra, O'zbekiston WBL indeksi bo'yicha 82,1 ball to'plab, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida yetakchi o'rinni egallagan. Bu natija mamlakatda ayollarning iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy va institutsional islohotlar ma'lum darajada samara berayotganini ko'rsatadi (1-jadval)[4].

1-jadval.

WBL indeksi bo'yicha ayrim mamlakatlarning umumiy ko'rsatkichlari¹

№	Mamlakat	WBL indeksi, ball	O'zbekistonga nisbatan farq
1.	O'zbekiston	82,1	0
2.	Qirg'iziston	79,6	-2,5
3.	Qozog'iston	73,0	-9,1
4.	Ozarbayjon	72,18	-9,92
5.	Tojikiston	70,22	-11,88


1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning umumiy ko'rsatkichi Qirg'izistonga nisbatan 2,5 ball, Qozog'istonga nisbatan 9,1 ball, Ozarbayjonga nisbatan 9,92 ball va Tojikistonga nisbatan 11,88 ball yuqori. Bu holat O'zbekistonda ayollarning iqtisodiy huquqlarini ta'minlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar mintaqaviy kesimda nisbatan yuqori natija berganini anglatadi.

Umumiy reyting yuqori bo'lishi bilan birga, alohida yo'nalishlar kesimida ham O'zbekistonda ijobiy ko'rsatkichlar mavjud. Xususan, mehnat huquqlari bo'yicha mamlakat 91,75 ball, ish haqi bo'yicha esa 100 ball to'plagan. Bu holat ayollarning

¹ Muallif ishlanmasi

mehnat bozorida ishtirok etishi uchun huquqiy asoslar nisbatan mustahkam ekanini anglatadi. Biroq ota-onalik ko'rsatkichi bo'yicha 62,5 ball qayd etilgani mazkur yo'nalishda rivojlanish zaxiralari saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Eng muhim ko'rsatkichlardan biri bu tadbirkorlik ko'rsatkichidir. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston 75 ball to'plab, Qozog'iston va Ozarbayjon bilan birga yetakchi mamlakatlar qatoriga kirgan, Qirg'iziston va Tojikiston esa 50 balldan natija qayd etgan. Bu esa O'zbekistonda ayollarning biznes boshlashi va yuritishi uchun huquqiy baza mintaqada nisbatan yaxshi shakllanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tadbirkorlik indikatori ichida qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar 95 ball, huquqni qo'llash amaliyoti 62,5 ball ekani huquqiy asoslar amaliyotda hali to'liq darajada samara bermayotganini ham anglatadi (1-rasm)[5].



1-rasm. O'zbekistonning ayrim WBL yo'nalishlari bo'yicha natijalari¹

Tahlil natijalari WBL indeksi ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholashda samarali xalqaro vosita ekanini tasdiqlaydi. Ayniqsa, tadbirkorlik indikatori mazkur maqola mavzusi uchun markaziy ahamiyatga ega bo'lib, u ayollarning biznes yuritish huquqi, davlat qo'llab-quvvatlovi va amaliy imkoniyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Shu bois, ushbu indeksni milliy statistik ko'rsatkichlar va hududiy xususiyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llash ayollar tadbirkorlik faoliyatini yanada aniq baholash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, WBL indeksi O'zbekistonda ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholashda muhim xalqaro mezon hisoblanadi. Mazkur indeks ayollarning iqtisodiy faolligiga ta'sir etuvchi huquqiy, institutsional va amaliy omillarni kompleks baholash imkonini beradi. O'zbekistonning umumiy reyting bo'yicha mintaqada yetakchi o'rinni egallashi, ish haqi, mehnat huquqlari va tadbirkorlik yo'nalishlarida nisbatan yuqori natijalar qayd etilgani mamlakatda ayollar biznes faolligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha muayyan ijobiy o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatadi[6].

Tahlillar ayrim yo'nalishlarda, xususan ota-onalik va amaliy ijro bilan bog'liq ko'rsatkichlarda muammolar saqlanib qolayotganini ko'rsatdi. Bu esa ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholashda faqat umumiy reyting bilan cheklanmasdan, alohida

¹ Muallif ishlanmasi

ko‘rsatkichlar va ularning amaliy ifodasini ham hisobga olish zarurligini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, WBL indeksi ayollar tadbirkorligini baholashning tayyor modeli emas, balki milliy sharoitga moslashtirilishi lozim bo‘lgan metodik asos sifatida ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. WBL indeksi ko‘rsatkichlarini ayollar tadbirkorlik faoliyatini milliy baholash tizimiga moslashtirish maqsadga muvofiq.

2. Ayollar tadbirkorligini baholashda hududiy yondashuvni kuchaytirish, ya’ni WBL mezonlarini mahalliy statistik va institutsional ma’lumotlar bilan boyitish zarur[7].

3. Tadbirkorlik indikatoriga alohida e’tibor qaratish, chunki u ayollarning biznes boshlash va yuritish imkoniyatlarini bevosita ifodalaydi.

4. Ota-onalik, bolalar parvarishi va ijtimoiy infratuzilma bilan bog‘liq yo‘nalishlarda qo‘llab-quvvatlash choralari kuchaytirish lozim.

5. Ayollar tadbirkorligini baholashda huquqiy, iqtisodiy va institutsional ko‘rsatkichlarni birlashtiruvchi kompleks metodikani ishlab chiqish zarur[8].

Shunday qilib, WBL indeksi O‘zbekistonda ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholashda samarali xalqaro vosita bo‘lib xizmat qiladi. Uni milliy va hududiy xususiyatlar bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha yanada aniq va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Bank. Women, Business and the Law 2024. Washington, DC: World Bank, 2024.

2. World Bank. Uzbekistan Reaches the Ranks of Top Five Improvers in the World Bank’s Women, Business and the Law 2024 Study. Press release, March 4, 2024.

3. World Bank. Women, Business and the Law 2024: Uzbekistan, WBL 2.0 Pilot Data. Washington, DC: World Bank, 2024.

4. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma’lumotlari. <https://review.uz>

5. Jahon bankining 2026 yilgi “Ayollar, biznes va qonun” hisoboti.

6. Raximova M.I. Ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida)// Muhandislik&Iqtisodiyot. – Toshkent, 2025. –№12(643). –B.637-642.

7. Raximova M.I. Xalqaro tajribalar asosida ayollar tadbirkorligini barqaror rivojlantirish strategiyalari.// O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari. –Buxoro, 2025.

8. Raximova M.I. “Sanoat va ilm-fan: innovatsiyalarni rag‘batlantirish, texnologiyalar transferi va barqaror iqtisodiy o‘shish yo‘lida institutsional hamkorlik” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2025.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**